



THE IMPORTANCE OF THE MEDIATION INSTITUTION IN RESOLVING ECONOMIC DISPUTES

Normamat Ramazonovich Mallaev

PhD in Law

Associate Professor

Nigora Khushbakova

1st-year student in the specialization of Advocacy

Termiz State University

E-mail: Nigora.0303@icloud.com

Uzbekistan, Termiz

ABOUT ARTICLE

Key words: mediation, court, economic dispute, corporate dispute, confidentiality, conflict, flexibility, less time, arbitration courts, etc.

Received: 14.04.25

Accepted: 16.04.25

Published: 18.04.25

Abstract: This article discusses the expected results and effectiveness of mediation from the perspective of its application, comparing its advantages with the resolution of disputes in state courts. The article also highlights the institution of mediation application in foreign countries.

MEDIATSIYA INSTITUTINING IQTISODIY NIZOLARNI HAL QILISHDAGI AHAMIYATI

Normamat Ramazonovich Mallaev

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Nigora Xushboqova

I kurs tinglovchisi

Advokatlik faoliyati mutaxassisligi

Termiz davlat universiteti

Email: Nigora.0303@icloud.com

O'zbekiston, Termiz

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mediatsiya, sud, iqtisodiy nizo, korporativ nizo, maxfiylik, konflikt, moslashuvchanlik, kamroq vaqt, hakamlar sudlari h.k.

Annotatsiya: mazkur maqola mediatsiyaning qo'llash sohalaridan kutiladigan natija va samaradorlik nuqtai nazaridan va davlat sudlarida hal etish bilan

taqqoslaganda mediatsiyaning afzallik jihatlari sanab o'tilgan va xorijiy davrlarlarda mediatsiyani qo'llash instituti yoritib o'tilgan.

ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА МЕДИАЦИИ В РАЗРЕШЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СПОРОВ

Нормамат Рамазонович Маллаев

кандидат юридических наук, доцент

Нигора Хушбакова

студент 1 курса по специальности «Адвокатская деятельность»

Термезский государственный университет

E-mail: Nigora.0303@icloud.com

Узбекистан, Термез

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: медиация, суд, экономический спор, корпоративный спор, конфиденциальность, конфликт, гибкость, меньше времени, арбитражные суды и т.д.

Аннотация: В данной статье рассматриваются ожидаемые результаты и эффективность медиации с точки зрения ее применения, а также преимущества медиации по сравнению с разрешением споров в государственных судах. Также освещается институт применения медиации в зарубежных странах.

Mediatsiyaning rivojlanishi va shakllanib borishi hisobiga uni qo'llanishi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlarning eng keng tarqalgan sohalari oilaviy, mehnat munosabatlari, fuqarolik, ma'muriy va boshqa ommaviy-huquqiy munosabatlar, shu jumladan tadbirkorlik va boshqa iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq munosabatlarda kelib chiqadigan nizolarga nisbatan qo'llanilishidir. Mediatsiyaning qo'llash sohalaridan kutiladigan natija va samaradorlik nuqtai nazaridan mediatsiyaning afzallik jihatlari sanab o'tsak:

- mediatsiya nizolashayotgan tomonlar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantiradi, tomonlari o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish yoki yaxshilash imkonini beradi, chunki u odamlar o'rtasida o'zaro tushunishni o'rnatishga qaratilgan;

- mediatsiyada kim haq va kim nohaqligini aniqlashga yoki g'alaba qozonishga qaratilgan emas. Bu jarayonda nizoni keltirib chiqargan aybdorni aniqlash va uning javobgarlik masalasi muhokama qilinmaydi va hal etilmaydi;

- mediatsiya, sudda deyarli imkonsiz bo'lgan muammoning yechimlarini topishga imkon beradi. Sud qarori ikkala tomon uchun ham majburiy qabul qilinadi. Mediatsiya tartibi esa o'zaro murosa tamoyiliga asoslanadi, bu esa natijaga erishilgandan keyin ham tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish imkonini beradi;

- ortiqcha mablagʻ, hissiy kuch va vaqtni tejaydi. Nizolar tez hal etiladi. Sud qarorida kerakli natijaga erishish uchun bir nechta instansiyalardan oʻtish kerak. Har biri avvalgisining qarorlarini bekor qilishi mumkin va jarayon bir necha yil davom etishi mumkin.

Mediatsiyani qoʻllashda tortishuvsiz yoki oddiy nizolar sudga keltirilmaydi. P. A. Astaxov, mediatsiya sivilizatsiyalashgan jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi ekanligini taʼkidlaydi. Chunki mediatsiya toʻgʻri, qonuniy va oʻzaro manfaatli munosabatda boʻlishni oʻrgatadi. Mediatsiya eng aniq va ijobiy natijalar beradi. Ushbu tartib tufayli tomonlarning har birining manfaatlari qondiriladi, chunki barcha qarorlar adolatli, maqbul, ixtiyoriy, ularning qonuniy huquq va manfaatlariga muvofiq boʻladi. Mediatsiya tartibida kelishuv bitimiga erishishning iloji boʻlmasa, taraflar nizoli masalani hal etish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin. Bozor munosabatlari shakllangan davlatlarda vujudga keladigan nizolarning eng koʻp tarqalgan turi bu korporativ nizolardir. Bu tabiiy holatdir. Iqtisodiyot turli mulk shakllariga asoslanar ekan mulkdorlar huquqlari va manfaatlari bilan bogʻliq boʻlgan xususan, aksiyadorlar umumiy yigʻilishining qarorlariga eʼtiroz bildirish, bitimlarning haqiqiy emasligi, aksiyalarni begonalashtirish, yuridik shaxsga yetkazilgan zararni qoplash va boshqalar bilan bogʻliq nizolar koʻp uchraydi. Shuning uchun korporativ nizolarning mohiyati va mediatsiya tartib-qoidalarining maqsadlaridan kelib chiqib, ushbu yoʻnalishda mediatsiyaning afzalliklarini ajratib koʻrsatish mumkin:

Maxfiylik. Ushbu toifadagi ishlar koʻp hollarda kompaniyaning ichki ishlari bilan bogʻliq boʻlib, boshqaruv tuzilmasi va biznes strategiyalariga taʼsir qiladi. Koʻpincha tomonlar mavjud nizo toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni tarqatishdan manfaatdor emas, bu esa yuridik shaxs va ishtirokchilarning oʻz obroʻsiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin, bu ularning keyingi kasbiy faoliyatiga xalaqit berishi mumkin. Bunday holda, mediatsiya protsedurasining maxfiyligi sud muhokamasining oshkoraligidan ustun kelib, bunday holatda sudni tanlash mutlaq ortiqcha hisoblanadi.

Konfliktning har tomonlama yoritilishi. Mediatsiyaning maqsadlari nafaqat nizoni neytrallash, balki sheriklik va ishbilarmonlik munosabatlarini rivojlantirish, ishbilarmonlik etikasini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni uygʻunlashtirishdir. Binobarin, ushbu tartibni qoʻllashda kim “haq” va kim “aybdor” ekanligi aniqlanmaydi, balki ikkala tomon uchun ham ularning manfaatlarini hisobga olgan holda vaziyatdan chiqishning eng maqbul yoʻli izlanadi. Mediatsiyaning amaliy xususiyati shundaki, tomonlar, qoida tariqasida, hamkorlikni davom ettiradilar va ishbilarmonlik munosabatlarini yaxshilash yoʻllarini qidiradilar. Shunday qilib, mediatsiya tartibi tufayli kompaniyaning barqarorligi va umuman iqtisodiy mavqei saqlanib qoladi.

Moslashuvchanlik va kamroq vaqt. Sud jarayoni har bir bosqich uchun normativ ravishda belgilangan muddatlarga ega bo'lgan aniq tartibga solingan tartib bilan tavsiflanadi. Umuman olganda, sudning ishni ko'rib chiqish va qaror qabul qilishning butun jarayoni mediatsiyaga qaraganda ancha ko'proq vaqtni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, nizolarni davlat sudlarida hal etish bilan taqqoslaganda mediatsiyaning quyidagi afzalliklari mavjud. Birinchidan, huquqlarni davlat sudlarida himoya qilishning sud shaklidan mediatsiya jarayonining asosiy farqi mediatorning nizoning mohiyatiga nisbatan o'z-o'zidan hech qanday qaror qabul qilmasligi hisoblanadi.

Mediatsiya doirasidagi barcha qarorlar faqat taraflarning o'zaro roziligi asosida qabul qilinadi. Sudda nizolar sud'yalar tomonidan taraflar uchun majburiy bo'lgan va majburiy tartibda ijro qilinishi mumkin bo'lgan qarorlar chiqarish yo'li bilan tugatiladi. Ikkinchidan, sudlarda ishlarning ko'pligi va ishlarni ko'rib chiqish oylab cho'zilganligi tufayli mediatsiya orqali nizolarni hal etish vaqtning tejallishiga olib keladi, ko'pincha bir ish bo'yicha nizolar ikkinchi va uchinchi instansiyada davom etadi, yutqazgan taraf sud hujjatlari ustidan shikoyat qiladi. Yuridik yordam olishga sarflanadigan xarajatlar sud jarayonining davom etish muddati bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli nizolarni tezkorlik bilan hal qilinishi mediatsiyaning tejamkorligini bildiradi. Uchinchidan, mediatsiya o'zgaruvchan jarayon hisoblanib, taraflar nizoni ko'rib chiqish jarayonini o'z xohishiga ko'ra tartibga solishlari mumkin, ularga muammoni muhokama etish uchun erkin sharoit yaratiladi. Shu bilan birga mediatorning o'zi ham taraflarga nizoni hal qilish yo'lini topishga yordam beradi. To'rtinchidan, sud ishining ommaviyligi, oshkoraligi va ochiqligidan farqli ravishda mediatsiya jarayoniga maxfiylik xosdir. Taraflardan olingan barcha ma'lumotlar, «devordan tashqariga chiqmaydi» va mediatorning faoliyati tugagandan so'ng uning barcha yozuvlari yo'q qilinishi lozim. Beshinchidan, sud qarorlari har doim ham taraflar istagan oqibatga olib kelmaydi (kamida bir taraf ishning natijasidan noroziligicha qoladi) va bu holat kelajakda sud qarorlarini nafaqat ixtiyoriy bajarishdan bosh tortilishiga, balki bajarishga majburiy to'sqinlik qilinishiga olib keladi. Mediatsiya davomida barcha qarorlar taraflarning ikki tomonlama kelishuviga ko'ra qabul qilinadi va ikkala taraf o'zlari tomonidan birgalikda qabul qilingan qarorlarini ixtiyoriy ravishda bajarish majburiyatini oladilar. Oltinchidan, mediatsiyaning rad etib bo'lmaydigan ustunliklari ichida taraflar o'rtasidagi yaxshi, do'stona munosabatlarni saqlab qolish hisoblanadi. Mediatsiya ayniqsa, mulkni taqsimlash, er-xotinlar, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish, mehnat nizolarini hal etish bilan bog'liq muammolarni hal etishda samarali hisoblanadi. Yuqoridagi holatlarda mediatsiya va uning qo'llanilishidan kutilgan natijalarning ijobiyligi va jarayonning ustun jihatlari keltirib o'tdik. Endilikda, mediatsiya jarayonini qo'llashga qanday salbiy omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savolning kelib chiqishi turli huquq tizimlarida huquqiy

munosabatlarning tartibga solinganlik darajasi, normativ-huquqiy hujjatlarning ustunligi, mediatsiya tartib-taomillari qo'llaniladigan sohalarda vujudga kelayotgan nizolarning xususiyatlari bilan birga jamiyatdagi muhit ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday sabablar postsovet davlatlari huquqiy tizimiga ko'proq mos tushadi. Mahalliy mentalitetdan kelib chiqqan holda sabablarni tahlil qilish mumkin, bunda ishonchsizlik ruhiyati, huquqiy madaniyatning past darajasi, nizo sub'yektlari o'rtasidagi ziddiyatning yuqori darajasi, nizo keltirib chiqarish istagi, huquqbuzarning sud orqali javobgarlikka tortilishi, tadbirkorlarning bir-biriga ishonchi yo'qligi, tomonlarning nizolarni hal qilish va mediatsiya shartnomasini ixtiyoriy ravishda bajarish uchun javobgarlikni o'z zimmlariga olmasliklari va eng ko'p tarqalgan turi nizoni faqatgina sud tartibida hal qilish amaliyotini ustun qo'yilishidir.

Mediatsiyaning tashkiliy-iqtisodiy kamchiliklari unga qo'shimcha xarajatlar, mediatsiya tartibidan foydalanish mumkin bo'lgan nizolarning cheklangan toifalari, mediatorlar sonining yetarli emasligini o'z ichiga oladi. Mediatsiya tartib-taomillarining murojaat qilmaslikning asosiy sabablarini tahlil qiladigan bo'lsak, tashkiliy jihatdan nizo ishtirokchilarining ushbu tartibning mavjudligi, uning yangiligi, xizmatlar uchun reklama yo'qligi to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emasligini o'z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatdan mediator xizmatlari uchun narxslarning optimallashtirilmaganligi, nizoda haq bo'lib turgan tarafning nizoni hal qilish uchun pul to'lashni istamasligi, sub'yektiv yoki psixologik jihatdan esa mediatsiyaning yangi soha ekanligi, aholining huquqiy madaniyatining past darajasi, vositachiga ishonchsizlik, uning professionalligi va nizolarni hal qilish sifatiga shubhalarni ta'kidlash. Bizning fikrimizcha, ushbu sabablarning barchasi birgalikda mediatsiya tartib-taomilidan foydalanmaslikda katta rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratishga qaratilgan sud-huquq islohotlari izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu sudhuquq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida nizolarni hal qilishning muqobil usullarini amaliyotga joriy qilish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish hisoblanadi. Ushbu sohada islohotlar doirasida 2018 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi va 2019 yil 1 yanvardan kuchga kirishi bilan mamlakatimizda nizolarni muqobil hal etishning (ADR – alternative dispute resolution) yangi usuli – mediatsiya joriy etildi.

Mediatsiya – kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida, "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimizda nizolarni hal qilishning muqobil usullarini amaliyotga keng tadbqiq etish bo'yicha islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Jumladan, 2019 yil 20 martdagi O'zbekiston Respublikasining "Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan moddiy va protsessual qonunchilikka nizolarni mediatsiya orqali hal etish va uni qo'llashning protsessual mexanizmlariga doir yangi normalar kiritildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 156-moddasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib da'vo muddati o'tishining to'xtatilish asoslari doirasi kengaytirildi. Endilikda mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilgan taqdirda da'vo muddati o'tishi to'xtatilishi belgilandi. Fuqarolik va iqtisodiy protsessual qonunchilikka "Yarashtirish tartib-taomillari" sifatida kelishuv bitimi bilan mediatsiya alohida mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 16 oktyabrda qabul qilingan "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuniga 371-modda kiritilib, "Hakamlik muhokamasida mediatsiyaning qo'llanilishi"ga oid yangi norma mustahkamlandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 iyundagi "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-son Qarori qabul qilinganligini alohida qayd etish darkor. Qaror bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, nizolarni hal qilishning muqobil imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek sudlarda ish hajmini maqbullashtirishda mediatsiya instituti, hakamlik sudlari va xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish nazarda tutildi. O'z navbatida amalga oshirilgan ushbu islohotlar fuqarolarimiz va tadbirkorlarimizga o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini nafaqat davlat sudlarida himoya qilish, balki nizolarni hal qilishni muqobil usullaridan foydalangan holda samarali hal qilish imkonini yaratdi. Biroq, islohotlarning hozirgi bosqichida davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlar faoliyatini takomillashtirish, nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlar sifatida fuqarolar hamda tadbirkorlarning ularga bo'lgan ishonchini oshirishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlanmalar yaratish, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish, monografik tadqiqotlar olib borish, o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratish, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mediatsiya taomilining rivojlanishi qadimgi Rimga borib taqaladi. Jumladan, Qadimgi Rimda savdo sohasidagi nizolar asosan "vositachi" (medium) ishtirokida hal qilingan. O'z navbatida, Yustinian kodeksida ham nizolarni vositachi ishtirokida hal qilish mumkinligi mustahkamlangan.

Zamonaviy mediatsiya tushunchasi esa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab AQSh, Avstraliya va Buyuk Britaniyada shakllana boshlagan. Dastlab, asosan oilaviy nizolarni hal qilishda keng qo'llanilgan. Mamlakatimizda ham garchi mediatsiya deb nomlanmasa-da, mediatsiyaga o'xshash yarashtirish taomillari qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan keng

qo'llanilib kelinganligi qayd etish darkor. Xususan, oilaviy nizolar qadimdan milliy urfodatlarimiz, an'analарimizga ko'ra, mahallaning hurmatga sazovor yoshi ulug' oqsoqollari, fuqarolar yig'ini raislari, qo'ni-qo'shnilar, yoki qarindosh-urug'lar ishtirokida, ular tomonidan muayyan yarashtirish choralарini ko'rgan holda hal qilinib kelingan. Ya'ni, oilaviy nizolarni hal qilishda ular mediator vazifasini bajargan. "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasida mediatsiyani qo'llash shartlari belgilangan. Mediatsiyani qo'llashning eng asosiy shartlaridan biri "tarafларning xohish-istagi" hisoblanadi. Chunki mediatsiya suddan tashqari va sud tartibida faqat tarafларning xohish-istagi bo'lgan taqdirda qo'llanilishi mumkin. Bundan tashqari, mediatsiya qaysi jarayonda qo'llanilishiga ko'ra qo'shimcha shartlar belgilangan.

Jumladan, mediatsiya:

nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida – sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida – faoliyatini professional asosda amalga oshiruvchi mediator ishtirok etgan taqdirda;

nizoni hakamlik sudida ko'rish jarayonida – hakamlik sudining qarori qabul qilinguniga qadar qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (bundan keyin matnda IPK deb yuritiladi) 107-moddasi 53-bandiga ko'ra, tarafлар o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan taqdirda, sud da'vo arizasini ko'rmasdan qoldiradi. O'z navbatida, nizoni sudda ko'rish jarayonida mediativ kelishuvning tuzilishi tarafлар uchun manfaatli ekanligini qayd etish lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasi "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasi birinchi qismi 9-bandiga ko'ra, tarafлар o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda davlat boji undirilmasligi mustahkamlangan. Ushbu qoida "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Ya'ni, tarafлар nizoni sudda ko'rish jarayonida mediativ kelishuvga erishsa, davlat bojini to'lashdan ozod etiladi. Ishni ko'rish bilan bog'liq bo'lgan chiqimlar, jumladan pochta xarajatlari esa javobgar zimmasiga yuklatiladi. Analogik norma fuqarolik protsessual qonunchilikda ham mustahkamlangan. O'z navbatida, nizoni sud muhokamasida yoki vakolatli davlat organida ko'rish jarayonida mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish chog'ida tarafлар tomonidan erishilgan mediativ kelishuv tegishli ish qaysi sud yoki vakolatli davlat organining ish yurituvda turgan bo'lsa, darhol o'sha sudga yoki vakolatli davlat organiga yuborilishi lozim. Nizo mediativ kelishuv bilan mediatsiya tartibida hal qilingan taqdirda, to'langan davlat boji qaytarilishi lozim. Milliy qonunchilikka ko'ra, davlat organlari tomonidan mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar, davlat organi yoki boshqa organ tomonidan muayyan shaxsning manfaatlarini ko'zlab sudga da'vo taqdim etilgan bo'lsa, o'sha shaxs mazkur davlat organining yoki boshqa organning ishtirokisiz mediativ kelishuv tuzishga

haqli hisoblanadi. Mediativ kelishuv uni tuzgan taraflar uchun majburiy kuchga ega bo'lib, ushbu kelishuv unda nazarda tutilgan tartibda hamda muddatlarda taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilishi lozim. Agar, mediativ kelishuv bajarilmagan taqdirda taraflar o'z huquqlari himoya qilinishini so'rab sudga murojaat etish huquqiga ega. Mediativ kelishuv bajarilmasligining oqibatlarini taraflar tomonidan ushbu kelishuvning o'zida belgilab qo'yilishi ham mumkin.

Mediatsiyaning bugungi kundagi zamonaviy ko'rinishi dastlab AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya kabi anglo-sakson huquqi oilasiga mansub xorijiy davlatlarda XX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Keyinchalik Yevropa davlatlarida ham rivojlanishni boshlagan. AQShda mediatsiyaning tartibga solishga qaratilgan yagona federal qonun yo'q. Har bir shtatda nafaqat mediatsiya, balki nizolarni muqobil hal etish usullarini huquqiy tartibga solish va qo'llashga oid o'ziga xos amaliyot shakllangan.

Jumladan, AQShda dastlab mediatsiyaning qo'llash oila huquqi sohasida vujudga kelgan. 1981 yilda Kaliforniya shtatida mediatsiya ilk bor bola bilan ko'rishish va unga nisbatan vasiylikni belgilashga oid nizolarda qo'llanilgan.

1983 yilda Michigan shtatida "Michigan shtatining G'arbiy okrugi federal sudi tomonidan qo'llaniladigan mediatsiya qoidalarini" qabul qilingan. Unga ko'ra, nizolarni muqobil hal qilish usullari fuqarolik sud ishlarini yuritishning istalgan bosqichida qo'llanilishi mumkinligi mustahkamlangan. Bundan tashqari, 1990 yil Djordjiya shtatida Nizolarni muqobil hal qilish bo'yicha qo'shma komissiya tuzilgan. Natijada Djordjiya shtatining Oliy sudi tomonidan shtatda nizolarni muqobil hal qilish usullarini qo'llash bo'yicha harakatlar rejasiga oid qoidalar tasdiqlangan va bu borada maxsus Komissiya tashkil qilingan. Komissiya nizolarni muqobil hal qilish dasturlarini, prinsiplarini ishlab chiqish va sertifikatlashtirish, vositachilarni o'qitish va ular faoliyatining asosiy mezonlarini belgilab beruvchi muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi.

O'z navbatida, AQShda shtatlar kesimida nizolarni muqobil hal etish usullarini tartibga solish va uni qo'llashga qaratilgan yagona qonunchilikni shakllantirish bo'yicha izchil islohotlar ham amalga oshirilganligini qayd etish lozim. Jumladan, 1990 yil AQSh Kongressi tomonidan "Fuqarolik odil sudlovni isloh qilish to'g'risida" Akt qabul qilingan. Ushbu qonun bilan fuqarolik sudlariga ilk bor nizolarni muqobil hal qilish usullarini qo'llashga ko'maklashish vazifasi yuklatildi. Natijada ko'plab shtatlarning protsessual qonunchiligiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib sudyalarga nizolashuvchi taraflarning dastlab mediatorga majburiy murojaat qildirishlari bo'yicha keng vakolatlar berildi. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa o'rniida aytishimiz mumkinki, xorijiy mamlakatlarda nizolarni hal qilishda mediatsiya institutini qo'llash bir-biridan farq qiladi va qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bosqichma-bosqich rivojlangan. Chunki ko'rib turganimizdek, birgina taraflar tomonidan nizoni mediatsiya orqali hal etish to'g'risida kelishilganda, sud tomonidan ish ko'rish keyinga qoldirilishi

yoki ariza ko'rmadan qoldirilishi yoxud ish yuritish to'xtatilishi, shuningdek, ish yuritish tugatilishi mumkinligi belgilangan. Xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, shuningdek o'z vaqtida fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida milliy qonunchilikda mediatsiya qo'llanishi lozim bo'lgan fuqarolik va iqtisodiy ishlar doirasini belgilash, mediativ kelishuv ixtiyoriy ijro etilmaganda uni ijro etishning majburiy protsessual mexanizmlarini ishlab chiqish, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish to'g'risida kelishuv tuzilganda ish yuritishni to'xtatib turish muddatlarini qisqartirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akmalovna, I.M. and Ramazonovich, M.N., 2024. Mediatsiya-Oilaviy Nizolarni Hal Etish Usuli Sifatida. Miasto Przyszłości, 53, pp.1311-1313.
2. Rasulov, S., 2022. Intellektual mulk bilan bog'liq nizolarni hal qilish uchun mediatsiyadan foydalanish. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 1(27), pp.7-13.
3. Bahramovna, B.M., 2022. Onlayn arbitraj faoliyatining huquqiy tartibga solinishi. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, pp.89-94.
4. Bahramovna, B.M., 2022. Raqamli makonda onlayn nizolar tushunchasi va ularning huquqiy maqomi. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, pp.163-168.